**Reymbaeva Roza Saparbaevna**

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti

Biologiya fanlari nomzodi

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA BOSHLANG‘ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING QIYOSIY TAHLILI

**Annotatsiya**

Nukus shahrida bolalarning tana qismlarining antropometrik ko‘rsatkichlariga oid yoshga, individual va jinsga xos xususiyatlar o‘rganildi. Taxiatosh tumani maktablarida hamda shahar maktablarida tahsil olayotgan 7–10 yoshli kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishining antropometrik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar**

antropometrik ko‘rsatkich, jismoniy rivojlanish, kichik maktab yoshidagi bolalar.

**Аннотация**

Изучались возрастные, индивидуальные и половые особенности антропометрических параметров частей тела детей в Нукусе. Проведен сравнительный анализ антропометрических показателей физического развития детей младшего школьного возраста 7 – 10лет, которые учатся в школах Тахиаташского района и в городских школах.

**Ключевые слова**

антропометрический показатель, физическое развитие, дети младшего школьного возраста.

**Annotation**

We studied the age, individual and gender characteristics of the anthropometric parameters of children's body parts in the Nukus region. A comparative analysis of anthropometric indicators of physical development of children of primary school age 7-10 years, who study in schools of Taxiatosh district and in urban schools.

**Keywords**

anthropometric indicator, physical development, primary school children.

**Kirish.** Bolalarning jismoniy rivojlanishi bolalar populyatsiyasi va umuman aholi salomatligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi .Jismoniy rivojlanishni muntazam monitoring qilish bolalarning muayyan turmush tarzi va yashash muhiti sharoitida shakllangan o‘sish hamda rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek jismoniy rivojlanishning me’yoriy darajasidan chetlanishlarni o‘z vaqtida belgilash va rivojlanishdagi

buzilishlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi [1, 3, 7].

Hozirgi vaqtgacha bolalar jismoniy rivojlanishini baholash me'yorlari yuzasidan munozaralar davom etmoqda. Bir tomondan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlardan foydalanish yetarli, degan fikr mavjud [2, 6,].

Tashqi muhitning noqulay sharoitlariga jismoniy rivojlanishning uyg'unligi va somatotipi kabi tarkibiy qismlar ayniqsa sezgir hisoblanadi [1, 3, 6].

Salbiy omillarning o'sib va rivojlanib borayotgan bola organizmiga uzoq muddatli ta'siri natijasida jismoniy rivojlanishning nomutanosibligi bilan namoyon bo'ladigan donozologik o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin [2, 5].

Bolalarning jismoniy rivojlanishini kompleks baholash uchun o'sib kelayotgan avlodning individual xususiyatlarini inobatga oluvchi turli metodikalar yordamida har tomonlama tekshiruv o'tkazish zarur [1, 2, 3].

Umume'tirof etilishicha, bolalar jismoniy rivojlanishini baholashda nafaqat hududiy xususiyatlar, balki aholi punkti turi (shahar, qishloq) ham hisobga olinishi lozim. Shahar va qishloq sharoitida iqlim-geografik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro ta'sir xususiyati bir xil emas. Shu sababli doimiy ravishda qishloq hududida yashovchi bolalar jismoniy sog'lig'i holati, somatik ko'rsatkichlari va funksional xususiyatlari bo'yicha shahar bolalaridan farq qilishi mumkin [ 2,7].

**Tadqiqot maqsadi:** Taxiatosh tumani maktablari hamda shahar maktablarida tahsil olayotgan 7–10 yoshli kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishining antropometrik ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish.

**Tadqiqot materiali** sifatida amalda sog'lom (I va II sog'liq guruhlari) o'zbek millatiga mansub kichik maktab yoshidagi bolalar olindi. Jami 7–10 yoshdagi 800 nafar bola tekshiruvdan o'tkazildi.

O'quvchilarni tekshirish maktab tibbiyot punktida o'tkazildi. Tekshirilgan bolalarning yosh davrlari bo'yicha taqsimoti simpozium tavsiyalariga hamda professor L.K. Semenova (Leningrad, 1991) tomonidan taklif etilgan yosh davrlashtirish mezonlariga asoslanib amalga oshirildi. Unga ko'ra, balog'at yoshigacha bo'lgan bolalarni (birinchi bolalik, ikkinchi bolalik va h.k. davrlar bo'yicha emas) aynan yillar kesimida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yosh davrlashtirishga bunday o'zgartirish kiritilishi ushbu davrda bo'y uzunligining jadal o'sishi, irqiy farqlarning namoyon bo'lishi, ayniqsa qiz bolalarda pastki oyoq-qo'llarning intensiv o'sishi kabi omillar bilan bog'liq. Bu esa tana qismlari va a'zolarning o'sish dinamikasini, shuningdek tana segmentlari mutanosibligini yillar kesimida aniqroq ochib berish hamda eng ishonchli natijalarni olish imkonini beradi.

O'tkazilgan antropometrik o'lchovlar natijalarini to'g'ri baholash maqsadida bolalarning yoshi 1985-yilda X.G. Butaev, K.S. Ladogo, I.Ya. Kon va Ya. Usmanov tomonidan taklif etilgan sxema asosida aniqlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'tkazilgan antropometrik tekshiruvlar 1975-yildagi Helsink deklaratsiyasida bayon qilingan tibbiy-biologik tadqiqotlarning etik tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda bajarildi.

**Tadqiqot natijalari:** Taxiatosh tumani maktablarida (160 bola) va shahar maktablarida (400 bola) tahsil olayotgan 7–10 yoshli kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishining antropometrik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Ba’zi shunga o‘xshash tadqiqotlarda aniqlanishicha, qishloq bolalari shahar bolalariga nisbatan tana massasi va uzunligi bo‘yicha sezilarli darajada orqada qoladi. Buning sababi sifatida og‘ir jismoniy mehnatning erta boshlanishi, oziqlanishdagi mavsumiy o‘zgarishlar (qishda asosan go‘shtli taom, yozda esa o‘simlik mahsulotlari), shuningdek sog‘lomlashtirish ishlarining yetarli darajada olib borilmasligi ko‘rsatiladi.

V.A. Krasilnikova va hamkasblarining (2005) fikriga ko‘ra, qishloq bolalarining antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha shahar bolalaridan orqada qolishi oxirgi guruhning biologik jihatdan tezroq yetilganligi bilan izohlanadi.

**Jadval 1**

**Hududlar bo‘yicha o‘g‘il bolalarning tana massasi (kg) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 21,9±0,6 | 23,9±0,6 |
| 8 yil | 25,4±0,4 | 27,1±0,4 |
| 9 yil | 27,7±0,6 | 30,1±0,6 |
| 10 yil | 29,9±0,1 | 31,9±0,3 |

7–10 yoshli Nukus shahar bolalarining jismoniy rivojlanish parametrlari, qishloq hududida yashovchi hamyoshlariga nisbatan qiyoslanganda, tana uzunligi va massasi bo‘yicha sezilarli darajada oshganligi aniqlangan — bu holat o‘g‘il va qiz bolalarda ham kuzatilgan.

Tana massasi bo‘yicha shahar o‘g‘il bolalarining 7 yoshda og‘irligi 23,9±0,6 kg bo‘lib, qishloqdagi hamyoshlariga nisbatan 2,0 kg ko‘proq (21,9±0,6 kg). 8 yoshda shahar o‘g‘il bolalarining tana massasi 27,1±0,4 kg bo‘lib, qishloq bolalariga nisbatan 1,7 kg yuqori; 9 yoshda 30,1±0,6 kg – 1,4 kg ko‘proq; 10 yoshda 31,9±0,3 kg – 2,0 kg ortiq (qishloq bolalari mos ravishda 25,4±0,4 kg; 27,7±0,6 kg; 29,9±0,1 kg) (Jadval 1).

**Jadval 2**

**Hududlar bo‘yicha qiz bolalarning tana massasi (kg) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 21,7±0,5 | 23,0±0,5 |
| 8 yil | 24,9±0,4 | 27,1±0,4 |
| 9 yil | 27,8±0,7 | 29,6±0,7 |
| 10 yil | 30,3±0,7 | 31,8±0,6 |

Shahar qiz bolalari uchun olingan o‘xshash natijalar 7 yoshda 23,0±0,5 kg bo‘lib, ular qishloq hamyoshlariga nisbatan 1,3 kg og‘irroq ekanligini ko‘rsatdi (qishloq qizlari 21,7±0,5 kg). 8–10 yoshdagi shahar qizlari (mos ravishda 27,1±0,4 kg; 29,6±0,7 kg; 31,8±0,6 kg) shu yoshdagi qishloq qizlariga nisbatan (24,9±0,4 kg; 27,8±0,7 kg; 30,3±0,7 kg) 1,3 kg; 2,2 kg; 1,8 kg va 1,5 kg og‘irroq ekanligi aniqlangan.

Tana uzunligi bo‘yicha 7 yoshdagi shahar o‘g‘il bolalari (122,3±0,5 cm) qishloq hamyoshlariga nisbatan 1,8 cm uzunroq bo‘lgan (qishloq o‘g‘il bolalari 120,5±0,3 cm). 8 yoshda o‘g‘il bolalarning tana uzunligi shahar va qishloqda mos ravishda 128,8±0,5 cm va 127,4±0,5 cm – 1,4 cm farq; 9 yoshda 133,6±0,3 cm va 132,5±0,3 cm – 1,1 cm; 10 yoshda 138,5±0,4 cm va 137,3±0,1 cm – 1,2 cm farq qilgan (Jadval 3).

**Jadval 3**

**Hududlar bo‘yicha o‘g‘il bolalarning tana uzunligi (cm) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 120,5±0,3 | 122,3±0,5 |
| 8 yil | 127,4±0,5 | 128,8±0,5 |
| 9 yil | 132,5±0,3 | 133,6±0,3 |
| 10 yil | 137,3±0,1 | 138,5±0,4 |

Shahar qizlari tana uzunligi bo‘yicha qishloq hamyoshlariga nisbatan uzunroq bo‘lgan (Jadval №19). 7 yoshdagi qizlar 122,9±0,2 cm va 122,3±0,2 cm bo‘lib, 0,6 cm farq qilgan. 8 yoshda 129,8±0,5 cm va 128,2±0,5 cm – 1,6 cm farq; 9 yoshda 133,6±0,4 cm va 132,1±0,4 cm – 1,5 cm; 10 yoshda 138,9±0,8 cm va 137,8±0,8 cm – 1,1 cm farq qilgan (Jadval 4).

**Jadval 4**

**Hududlar bo‘yicha qiz bolalarning tana uzunligi (cm) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 122,3±0,2 | 122,9±0,2 |
| 8 yil | 128,2±0,5 | 129,8±0,5 |
| 9 yil | 132,1±0,4 | 133,6±0,4 |
| 10 yil | 137,8±0,8 | 138,9±0,8 |

7–9 yoshdagi shahar o‘g‘il bolalarining ko‘krak qafasi aylanishi (mos ravishda 62,4±0,6 cm; 63,2±0,4 cm; 64,5±0,2 cm) qishloq hamyoshlariga (61,8±0,4 cm; 62,6±0,3 cm; 63,9±0,4 cm) nisbatan o‘rtacha 0,6 cm farq qilgan. 10 yoshda ular (66,3±0,5 cm va 64,9±0,3 cm) o‘rtasida farq 0,4 cmni tashkil qilgan (Jadval 5).

**Jadval 5**

**Hududlar bo‘yicha o‘g‘il bolalarning ko‘krak qafasi aylanishi (cm) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 61,8±0,4 | 62,4±0,6 |
| 8 yil | 62,6±0,3 | 63,2±0,4 |
| 9 yil | 63,9±0,4 | 64,5±0,2 |
| 10 yil | 64,9±0,3 | 66,3±0,5 |

7–10 yoshdagi shahar qizlarining ko‘krak qafasi aylanishi (mos ravishda 59,3±0,1 cm; 60,8±0,3 cm; 63,7±0,7 cm; 64,2±0,9 cm) qishloq hamyoshlariga (58,6±0,3 cm; 59,9±0,3 cm; 61,9±0,4 cm; 63,7±0,3 cm) nisbatan mos ravishda 0,7 cm; 0,9 cm; 0,8 cm va 0,6 cm farq qilgan (Jadval 6).

Bizning olingan natijalarimizga ko‘ra, 7–10 yoshdagi shahar bolalarining bosh aylanasi 55,7±0,3 cm; 56,2±0,2 cm; 56,3±0,2 cm va 56,8±0,1 cm bo‘lgan. Shu yoshdagi qishloq hamyoshlariga nisbatan (54,5±0,2 cm; 54,8±0,2 cm; 54,8±0,2 cm; 55,7±0,1 cm) farq mos ravishda 1,2 cm; 1,4 cm; 1,5 cm va 1,1 cmni tashkil qilgan (Jadval 7).

**Jadval 6**

**Hududlar bo‘yicha qiz bolalarning ko‘krak qafasi aylanishi (cm) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 58,6±0,3 | 59,3±0,1 |
| 8 yil | 59,9±0,3 | 60,8±0,3 |
| 9 yil | 61,9±0,4 | 63,7±0,7 |
| 10 yil | 63,7±0,3 | 64,2±0,9 |

**Jadval 7**

**Hududlar bo‘yicha bolalarning bosh aylanasi (cm) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 54,5±0,2 | 55,7±0,3 |
| 8 yil | 54,8±0,2 | 56,2±0,2 |
| 9 yil | 54,8±0,2 | 56,3±0,2 |
| 10 yil | 55,7±0,1 | 56,8±0,1 |

7–10 yoshdagi shahar qizlarining bosh aylanasi 54,8±0,2 cm; 55,2±0,2 cm; 55,7±0,2 cm va 56,5±0,3 cm bo‘lib, qishloq hamyoshlariga (53,8±0,2 cm; 54,2±0,1 cm; 54,6±0,1 cm; 55,3±0,2 cm) nisbatan o‘rtacha 1,1 cm farq qilgan (Jadval №8).

**Jadval 8**

**Hududlar bo‘yicha qiz bolalarning bosh aylanasi (cm) bo‘yicha qiyosiy baholash**

| Yosh | Taxiotash t. | Nukus |
|---|---|---|
| 7 yil | 53,8±0,2 | 54,8±0,2 |
| 8 yil | 54,2±0,1 | 55,2±0,2 |
| 9 yil | 54,6±0,1 | 55,7±0,2 |
| 10 yil | 55,3±0,2 | 56,5±0,3 |

Hududlar bo‘yicha kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishining antropometrik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, solishtirilgan aholi punktlaridagi maktab bolalarining tana massasi, tana uzunligi, ko‘krak qafasi aylanishi va bosh aylanasi ko‘rsatkichlari guruhlar o‘rtasida farq qilgan.

**Xulosa.** Kichik maktab yoshidagi bolalarning antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha qishloq hududida yashovchi bolalar shahar bolalariga nisbatan tana massasi va tana uzunligi bo‘yicha sezilarli darajada orqada qoladi. Ko‘krak qafasi aylanishi bo‘yicha esa ular deyarli farq qilmaydi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Антонова А.А. Сравнительная характеристика физического развития детей / А.А. Антонова, С.Н. Ченцова, В.Г. Сердюков // Астрахан. мед. журнал . – 2012. - №4. – С. 26 – 29.
2. Красильникова В. А. Особенности физического развития городских и сельских младших школьников Республики Тыва / В. А. Красильникова, Крикун Е. Н. Антопоэкологический мониторинг показателей физического развития новорожденных детей / Е. Н. Крикун, Э. Г. Мартиросов, Д. Б. Никитюк // Науч. ведомости Белгород. го с. ун-та. – 2008. – № 6. – С. 26-33.
3. Bakhodirovich, J. U. (2024). The methodology of developing the strength qualities of qualified young freestyle wrestlers. *Eurasian Journal of Sport Science*, *1*(1), 34-37.
4. Жарылкапов, У. Б. (2023). Курашчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (2), 110-111.
5. Baxadirovich, J. U., Polatovich, Q. R., & Koptileovich, T. M. (2022). Peculiarities of planning freestyle wrestling training sessions. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *5*, 59-62.
6. Жарылкапов, У. Б., & Жолдасов, А. (2022). Тактическая подготовка борцов женщин. In *Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования* (pp. 532-534).
7. Жарылкапов, У. Б., & Алимбетова, А. (2022). Элементы греко-римской борьбы в процессе занятий по физическому воспитанию. In *Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования* (pp. 530-532).